



“JONAJON O‘ZBEK TILIM”

Uroqova Malikabonu Faxriddin qizi

Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabi 10-“B” sinf o‘quvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21372733>

Atrofdagi shovqin-suron quloqni junbushga keltirardi. Barcha “O‘zbek tili” bayramiga bag‘ishlangan tantanali anjuman uchun shoshilinch tayyorgarlik ko‘rayotgan edi. Shunda nigohim kimdadir to‘xtadi. U 29–30 yoshlar atrofidagi ayol, boshqalar kabi shohona kiyingan emas, maydagina jussasida anjuman formasini kiyib olgan edi. U ko‘zlarini yumib, nutqini takrorlar, hayajonini yengishga urinardi. Shasht bilan, ich-ichidan kuylagandek so‘zlashi meni beixtiyor o‘ziga jalb qildi. Qulog‘imga uning tovushi arang yetib kelardi:

“Millat — jism, til esa uning joni...” Bu so‘zlarning ohangida nimadir yuragimni chertib o‘tdi.

Shu payt anjumanning sodda, jikkakkina, ammo o‘ziga xos mehr bilan so‘zlaydigan boshlovchisi Hulkar Karimova men ham ochilish so‘zida ishtirok etishimni eslatdi.

Tashrif buyurgan mehmonlar joylashib bo‘lishgach, anjuman boshlandi. Kutilgan daqiqalar yetdi — menga ham so‘z berildi. Ammo men bilan birga professor, tilshunos olim Ilhom Rahimov ham nutq so‘zlashini bilmasdim. Sahnaga chiqib, hayajonimni yengib, ona tilimiz haqida she‘r va maqollar bilan to‘la so‘zimni yakunladim. Yengil tortgancha joyimga qaytayotganimda, mendan keyin chiqqan Ilhom Rahimovning rus tilida so‘z boshlagani meni lol qoldirdi. Bu rejada bo‘lmagan shekilli, Hulkar Karimova ham biroz noqulay ahvolga tushdi. Hayratimni bildirmaslik uchun jilmayibgina o‘rnimga o‘tirdim. Professor esa hech narsa bo‘lmagandek, g‘urur bilan nutqini yakunlab joyiga qaytdi.

Birozdan so‘ng, navbatdagi ishtirokchiga — bir ayolga so‘z berildi. U boshqalarga nisbatan sodda kiyingan, oddiy ko‘rinsa-da, so‘z boshlagan zahoti zalni jimjitlik qoplab oldi. Qarshimda avval kutish joyida ko‘rgan o‘sha ayol edi.

Uning har bir so‘zi yurakdan chiqardi, ohangi esa yuraklarga kirardi:

“O‘zbek tilim — xalqimning joni,


Millat esa tilning jismidir.

Inson tanasida jon ila tirik bo‘lgani kabi,

Millat ham tili ila barhayotdir.

Asrlar o‘tadi, zamonlar almashadi, ammo tili bor xalq — boqiydir.”

Bu so‘zlarni tinglar ekanman, jismimdan g‘alati iliq to‘lqin o‘tdi. Yuragim gursillab urardi, tomirimda faxr va hayajon bir-biriga aralashib oqardi. Kōz oldimda bir siymo- O‘zbek tili bor edi. Beixtiyor o‘rnimdan turib ketdim — buni





o‘zim ham sezmay qoldim. Qarasam, Ilhom Rahimov ham tik turgan, yuzida tabassum bilan “Молодец, молодец!” — deb takrorlardi.

Zalda qarsaklar yangradi. Shu bir maydagina ayolning jismida nechog‘lik ulkan qudrat, nechog‘lik milliy g‘urur borligini his etdim. Ko‘nglimni ifodalab bo‘lmaydigan tuyg‘ular chulg‘ab oldi. Shu kuni men tilimning naqadar muqaddas, ona yurtimning qanchalik aziz ekanini yuragimda yana bir bor his qildim.

“O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish – eng ustuvor vazifalarimizdan biridir.”

Mirziyoyev Sh.M., O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.

Bu fikr Prezidentning 2019-yil 21-oktabrdagi o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirishga qaratilgan farmon va nutqlarida ilgari surilgan.

“O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir.”

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni, 1-modda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni. – Toshkent, yangi tahrir.

